

FINLANDIYA TA'LIM DASTURI NIMA UCHUN MUVAFFAQIYATLI?

Narzullayeva Muxayyo Iftixor qizi

Mustaqil izlanuvchi

E-mail: muxayyonarzullayeva1@gmail.com

ANNOTASIYA

Ta'lim dasturiga kiritilgan o'zgarishlar va harakatlar natijasi PISAda namoyon bo'ldi. Finlandiyada ilm-fan borasidagi o'sishlar sezilarli edi. Muvaffaqiyatli natijalar olqishga sazovor.

Kalit so'zlar: standartlashtirilgan davlat dasturlari, davlatlararo musobaqa, o'qish darajasi

PISA natijalari.

Kirkojarvi, har tomonlama ixtisoslashtirilgan maktabda, Kari Lovohur maktab prinsiplaridan tashqari g'ayrioddiy o'qish metodlarini qo'llashga harakat qiladi. Uning 6-sinf o'quvchilaridan biri yaqindagina shaharchaga ko'chib kelgan hamda o'qishni boshlagan edi. O'qituvchining tinmasdan qilayotgan harakatiga qaramasdan, u o'qishni bo'yniga olgisi yo'q edi.

Bu mamlakatda o'tgan 10yil ichida o'qitish usullari-yu matematika, ilm-fan borasidagi o'sishlar sezilarli edi. “Besart (yaqinda ko'chib kelib o'qishni boshlagan o'quvchi) bilan shug'ullanishga qaror qildim”-deya ta'kidlaydi Lovohur. Xuddi shunday paytlarda o'qituvchi Besartdan keyingi partaga kelib o'tirdi hamda qo'lga kitobni olib sekinlik bilan o'qishni boshladi, undan so'ng boshqa kitob, undan keyin boshqasi. Yil oxirini esa Besart unililari ko'p bo'lgan mamlakat tilini muvaffaqiyatli o'rganish bilan yakunladi. Bunday ta'limning ajoyib rekordlari ham quvonarlidir, albatta.

Ta'lim tizimi 40yil oldin boshlanganligiga qaramay, o'qituvchilar 2000-yilga kelib top reytinglar qatoridan o'rin olishlariga ishonishardi. Xuddi shu yilda PISA (xalqaro o'quvchilar uchun programma) ning natijalariga ko'ra, 15yoshlilar orasida 40dan oshiq davlatlar bilan musobaqada dunyo bo'yicha eng zo'r o'qish darajasini qo'lga kiritishdi. 3yildan so'ng esa matematikaning oliy o'rinlaridan joy olishdi. 2006-yilga kelib esa ilm-fan sohasida 57ta millat bilan bellashuv olib bordi. Dunyo bo'ylab taxminan yarim million o'quvchi orasidan fan sohasida 2-o'rin, o'qish bo'yicha 3, 6-o'rin xalqaro matematika sohasida qo'lga kiritishgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari hukumati maktablarda bozor iqtisodiyotini tushuntirib berishga urg'u berdi. So'ngi yillarda ko'plab moliyachilar o'z sarmoyalarini imtiyozli maktablarga yo'naltirdi. Sababiki, bunday maktablar soni so'ngi 10yilda 2marotabaga oshgan edi.

AQShdan farqli ravishda Finlandiyada standartlashtirilgan majburiy testlar yo'q, ya'ni yuqori sinf o'quvchilari uchun o'qish oxiridagi imtixonlar bekor qilingan. Qolaversa, bu mamlakatda o'quvchilar orasida hech qanday musobaqa yo'q. Hukumat odamlarining ko'pchiliklari biznesmen yoki siyosatchi emas, aksincha, ta'lim shaxslardir. Har bir maktabda bir xil maqsad - millatni rivojlantirish. Finland bolasida sifatli ta'lim olishi uchun har qanday sharoit mujassam, xoh u shaharda yashasin, xoh qishloqda. Bundan tashqari, Finlandiya ota-onalar va bolalarni qo'shimcha daromad bilan ta'minlaydi. Bola 17yoshga to'lmaguncha har oy har bir bola uchun 150€ to'lanadi. Maktablar ovqat, yo'l transporti bilan o'quvchilarni to'liq ta'minlaydi. Hattoki ular da tibbiy ko'rik ham bepuldir. Finlandiya maktablari hayratlanarli emas.

XX asrning birinchi yarim yilligida faqatgina yengil ta'lim bo'lgan xolos. Ammo, 1963-yilga kelib, Finlandiya hukumati jamoaviy ta'lim yo'lini tanlashadi. Bu maktablarda 7yoshdan 16yoshgacha o'qish majburiy etib belgilanadi. Turli xil millat o'qituvchilari maktab dasturiga o'z hissalarini qo'shish uchun tashrif buyurishadi. Finlandiya va Shved tili, 3-til sifatida esa ingliz tilini maktab dasturiga joriy etishadi. O'qish uchun kerakli barcha jihozlar maktablarga yetkaziladi. 1979-yildan boshlab esa

o‘qituvchilarning oyligi eng ko‘p to‘lanadigan oyliklardan biri bo‘ldi va hozirgacha ham shunday. Bu esa ularning kasbga bo‘lgan hurmatini doimiy oshirib bordi. Lovohur aytganidek:

“Bizning muvaffaqiyatga nisbatan motivatsiyamiz bor, chunki biz o‘z ishimizni sevamiz”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)

1.<https://uz.m.wikipedia.org>

2.<https://xs>.